TORCH INFEKTSIYASI VA UNI XALQ TABOBATI USULLARI YORDAMIDA DAVOLASH
TORCH INFECTION AND ITS TREATMENT USING FOLK MEDICINE METHODS

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
O'zbekiston "TABOBAT" akademiyasi raisi,O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori
Mirjalol Muqumjon o'g'li Mo'minjonov
O'zbekiston "TABOBAT" akademiyasi rais o'rinbosari, kimyo fanlari doktori.
Durdona Ma'murjon qizi Ma'murjonova
Andijon davlat universiteti,
kimyo yo'nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada TORCH infektsiyasi kasalligini davolashda ishlatiladigan zamonaviy – sintetik dori vositalarini yon ta'sirlari va TORCH infektsiyasini xalq tabobati usullari yordamida davolash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract. The article presents information on the side effects of modern synthetic drugs used in the treatment of TORCH infection and the treatment of TORCH infection using folk medicine methods.

Kalit so'zlar. TORCH, ezofagit, kolit, gematopoetik, ekstrakt, zararli ta'sir.

Key words. TORCH, esophagitis, colitis, hematopoietic, extract, harmful effect.

TORCH infektsiyasi - har qanday yosh va jinsdagi odamlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, ammo faqat homiladorlik uchun tayyorgarlik ko'rayotgan va homilador ayollarga, homila va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan xavfli bo'lgan kasallikdir[1]. Hozirgi kunda TORCH infektsiyasi kasalligini davolashda Spiramitsin, Entekavir, Seftriakson, Eritromitsin, Gansiklovir, Atsiklovir kabi zamonaviy-sintetik dori vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy-sintetik dori vositalari kasalliklarga qarshi yaxshi samara beradi, lekin yaxshi samara berishi bilan bir qatorda, ko'pgina zararli – yon ta'sirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, oshqozon-ichak traktidan: ko'ngil aynishi, qusish, diareya va psevdomembranoz, kolitning juda kam holatlari (0,01% dan kam). Yarali ezofagit va o'tkir kolitning alohida holatlarida tasvirlangan. Periferik va markaziy asab tizimidan: vaqtinchalik paresteziya. Jigar tomonidan: juda kam hollarda (0,01% dan kam) - jigar funktsiyasi testlarida o'zgarishlar va xolestatik gepatit rivojlanishi. Gematopoetik organlar tomonidan: juda kamdan-kam hollarda (0,01% dan kam)

o'tkir gemoliz va trombotsitopeniya rivojlanishi. Yuqori sezuvchanlik reaktsiyalari: teri toshmasi, qichishish. Juda kam (0,01% dan kam) - angioedema, anafilaktik shok. ovqat hazm qilish tizimidan: kamdan-kam hollarda - diareya, dispepsiya, ko'ngil aynishi, qusish; ehtimol - transaminazalarning faolligi oshishi. Markaziy asab tizimi tomonidan: tez-tez - bosh og'rig'i, charchoq; kamdan-kam hollarda - uyqusizlik, bosh aylanishi, uyquchanlik. Immunitet tizimi tomo*-nidan: anafilaktoid reaktsiyasi. Teri va teri osti to'qimalari tomonidan: alopesiya, toshma. Metabolizm tomondan: laktik atsidoz (umumiy charchoq, ko'ngil aynishi, qusish, qorin bo'shlig'ida og'riq, to'satdan vazn yo'qotish, nafas qisilishi, tez nafas olish, mushaklarning kuchsizligi), ayniqsa jigarning dekompensatsiyalangan shikastlanishi bo'lgan bemorlarda. Bundan tashqari, dekompensatsiyalangan jigar shikastlanishi bo'lgan bemorlarda quyidagi qo'shimcha nojo'ya ta'sirlar qayd etilgan: ko'pincha - qondagi bikarbonat kontsentratsiyasining pasayishi, ALT faolligi va bilirubin kontsentratsiyasining VGN ga nisbatan 2 baravar oshishi, albumin kontsentratsiyasi, lipaza faolligining normaga nisbatan 3 baravardan ko'proq oshishi, trombotsitlar kontsentratsiyasi 50000 / mkl dan past; kamdan-kam hollarda - buyrak etishmovchiligi kuzatiladi preparat qabul qilinganida allergik reaksiyalar (eshakemi, qichishish, eozinofiliya, zardob kasalligi, bronxospazm, ko'p shaklli ekssudativ eritema, anafilaktik reaksiyalar, kam hollarda – anafilaktik shok), stomatit, glossit, me'da-ichak yo'llari tomonidan esa ko'ngil aynishi, qusish, ta'm bilishni yo'qolishi, qorinda og'riq, disbakterioz, superinfeksiya, soxtamembranoz kolit paydo bo'lishi mumkin. Periferik qon ko'rsatkichlarini o'zgarishi, neytropeniya, limfopeniya, leykopeniya, trombositopeniya, kam hollarda – gemolitik anemiya yuz berishi mumkin, ayrim hollarda qon zardobi plazma omillarining (II,VII,IX,X) darajasi pasayadi, protrombin vaqti uzayadi, burundan qon ketishi kuzatiladi, xolestatik sariqlik rivojlanadi, siydikda kreatinin darajasi oshadi, silindrlar paydo bo'ladi, oliguriya, anuriya, biokimyoviy o'zgarishlar (jigar transaminazalari faolligini va bilirubinni qon plazmasida oshishi), o'tkir buyrak yetishmovchiligi, aritmiyalar, bosh og'rig'i, yuborish joyida og'riq yoki infiltrat, alohida xollarda yuborilganda flebit yoki tromboflebit bo'lishi mumkin. ovqat hazm qilish tizimidan: ko'ngil aynishi, qusish gastralgiya, qorin og'rig'i, tenezmlar, diareya disbakterioz, kamdan-kam hollarda – og'iz bo'shlig'i kandidozi, jigar faoliyatining buzilishi, xolestatik sariqlik, jigar transaminazalari faolligining ortishi, pankreatit. Eshitish organlari tomonidan: ototoksiklik - eshitish qobiliyatining pasayishi yoki quloqlarda shovqin. Siydik chiqarish tizimi tomonidan: kam hollarda – qonda mochevina va kreatinin darajasini oshishi. juda kam hollarda – o'tkir buyrak yetishmovchiligi. Markaziy nerv tizimi tomonidan: bosh og'rig'i, kam hollarda – bosh aylanishi, ongning chalkashishi, gallyusinasiyalar, uyquchanlik, paresteziyalar, tirishishlar, koma kabi qaytuvchan nevrologik buzilishlar. Odatda bu nojo'ya samaralari buyrak yetishmovchiligi bo'lgan pasientlarda preparat tavsiya etilgandan

yuqori dozalar qabul qilinganida kuzatilgan[2]. Shuning uchun TORCH infektsiyasini davolash uchun tabiiy mahsulotlardan foydalansak qo'shimcha yon ta'sirlar kuzatilmaydi. Hozirgi kunga qadar viruslarni xalq tabobati usullari yordamida davolashda biz tomonimizdan ixtiro qilgan Antivir, Anticovir, Askorovir, Ac-curcumin kabi tabiiy tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu oziq-ovqat qo'shilmalari zanjabl, zarchava, zirk, na'matak, qalampirmunchoq, qizilmiya, chesnok va qora sedana konsentratlaridan iborat bo'lib, inson organizmi immunitetini mustahkamlaydi va qo'shimcha yon ta'sirlarga ega emas [3,4]. Lekin, ushbu oziq-ovqat qo'shilmalari barcha TORCH infeksiyasi bilan kasallanganlarni davolash muammosini to'la hal qila olgani yo'q. Shuning uchun biz tomonimizdan TORCH infektsiyalarini davolashda qo'shimcha ravishda pilla tolasi ekstraktidan foydalanish tavsiya etilmoqda. Pilla tolasi tarkibidagi seritsinni viruslarga qarshi tabiiy antivir xuxusiyati borligi bizga adabiyotlardan ma'lum. Shuning uchun TORCH infektsiyasi kasalligini davolashda tabiiy vosita sifatida foydalanishimiz mumkin.

1-tavsiya: pilla tolasi tarkibidagi seritsin ekstraksiya yo'li bilan ajratib olib, ajratib olingan ekstraktni suvga qo'shib ichishni tavsiya qilamiz. Buning uchun 4 - 5 dona pilla maydalab to'rg'aladi, so'ngra 30 ml 70% li etil spirtida 3 - 4 sutka davomida saqlanadi. Hosil bo'lgan ekstrakt filtr qog'oz yordamida ajratib olinadi. Ajratib olingan ekstraktni xar kuni 3 - 4 tomchidan suvga qo'shib ichilsa yaxshi samara beradi.

2-tavsiya: kun ora 1 dona pilla tolasini olib, quritib, to'r'g'ab ovqat bilan qo'shib iste'mol qilish;

3-tavsiya: 2 – 3 dona pilla tolasini qaynatib, tindirib, kuniga 1 stakandan ichish ni tavsiya qilamiz.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarimiz TORCH infektsiyasi bilan kasallangan insonlarga yaxshi samara beradi va qo'shimcha yon ta'sirlarga ega emas.

Ipak tolasi asosan ikki xil polimerik oqsillardan iborat: fibroin va seritsin. Ipak tolasini tashkil etuvchi ikkita fibroin bir-biriga seritsin bilan bog'langan. Seritsin va fibroin turli xil aminokislotalardan iborat, ammo fibroindan farqli o'laroq, seritsin suvda eriydigan oqsildir. Ipak tolasi tarkibida 70-75% fibroin (suvda erimaydigan oqsil), 20-25% seritsin (suvda eriydigan oqsil), 2-3% turli minerallar, 1 – 1,5% mum va moylar mavjud. Seritsinning kimyoviy formulasi $C_{16}H_{25}N_5O_8$ bo'lib, seritsinning elementar tarkibi C - 44,32 - 46,29 %; H - 5,72 - 6,42 %; N - 16,44 -18,33 %; O - 30,35-32,5%; S - 0,15%. Tuzilishi bo'yicha seritsin oqsil bo'lib, seritsin molekulasidagi alohida aminokislotalarni bog'lash usuli hozircha noma'lum. Chiqishdagi aminokislotalarning miqdori taxminan 88% ni tashkil qiladi. Seritsin tabiiy infektsiyaga chidamliligiga ega va mukammal biokompatibilligi uchun odatda

yara koagulyanti sifatida, bundan tashqari u tibbiyotda tabiiy yaqinligi bilan birga elastikligi va tortishish kuchi tufayli jarohatni tikishda ishlatiladi[4].

Xulosa. TORCH infektsiyasi kasalligini davolashda foydalanib kelinayotgan zamonaviy – sintetik dori vositalari kasallikka yaxshi samara beryabdi lekin yaxshi samara berishi bilan bir qatorda qo’shimcha yon ta’sirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun TORCH infektsiyasi kasalligini davolashda biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan pilla tolasi ekstraktidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Pilla tolasi ekstraktidan foydalanish yaxshi samara berishi bilan bir qatorda qo’shimcha yon ta’sirlarga ham ega emas.

Adabiyotlar:

1. https://med360.uz/kasalliklar/torch-infektsiya/
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Spiramitsin
3. И.Р.Асқаров “Сирли табобат ” // Фан ва технологиялар нашриёт – матбаа уйи. Тошкент. 2021г. 872-879 b.
4. И.Р.Асқаров. “ ТАБОБАТ ҚОМУСИ” // Мумтоз сўз. Тошкент 2019-й. 875-б
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ipak